Kasbiy ta'lim rahbarlarining individual yondashuv asosida kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari ...	780
Yangiboyev Kamol Norboyevich	
Тема экологических проблем как элемент духовно-нравственного воспитания студентов в произведениях Чингиза Айтматова	784
Абдулвохидов Элёр	
Девиантное поведение школьников в образовательной среде: проблемы классификации и гендерные особенности восприятия педагогами	789
Алимжанова Матлюба Юнусовна	
Анализ проблем развития профессиональной иноязычной компетенции по английскому языку у студентов медицинских вузов	793
Исраилова Илона Халитовна	
Психолого-педагогические условия использования изобразительной деятельности как средства стимуляции коммуникативных навыков у воспитанников с синдромом дауна	798
Каримова Регина Шовкатовна	
Методика развития специальной физической подготовленности футболистов 11–12 лет с использованием современного инновационного оборудования	802
Мирзабаев Диёрбек Камилович	
Нейроигра как эффективное средство развития познавательных и регуляторных функций у детей дошкольного возраста	805
Намазбаева Лола Закировна, Маткаримова Шарира Рахимжановна	
Методы и приёмы технологии развития критического мышления в курсе "Общая педагогика": опыт проектирования учебного процесса в вузе	809
Янкина Рано Садыковна	
Oliy ta'lim muassasalarida muloqot madaniyatini shakllantirish orqali verbal zo'ravonlikni bartaraf etish texnologiyalari	817
Oqmirzayeva Baxtigul Bahodir qizi	
Tashvishli buzilishlarni korrektsiya qilishda kognitiv-bixevioristik terapiya usullari	821
Sattarova Shaxnoza Qo'chqarovna, Xamroyeva Zarina Shaxriyevovna	



Rahbar va pedagogik muhit: nazariy va amaliy asoslar	824
<i>Xodjimatrova Nazira Toshmatovna, Gaziyeva Nigora Shamsiddinova</i>	
O'smirlik – deviant xulq shakllanishi uchun senzitiv davr sifatida	827
<i>Sattarova Shahnoza Qo'chqarovna, Erkinjonova Raximaxon Baxtiyor qizi</i>	
Цифровые образовательные технологии как средство формирования коммуникативной компетенции при обучении русскому языку как иностранному	830
<i>Ескараева Г. Б.</i>	
Kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning amaliy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	833
<i>Muxiddinova Nilufar Baxodirovna</i>	
Talabalar mediakompetentligini baholash usullari va mezonlari	839
<i>Alimov Zokir Chori o'g'li</i>	
STEAM ta'lim texnologiyasi orqali tabiiy fanlarni o'qitish va o'quvchilarda kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirish	844
<i>Ergasheva Malohat Tursunovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy salohiyatini aniqlash va baholash mezonlari	847
<i>Hamzayeva Nigina Azamjonovna</i>	
Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalarni o'qitishda fanlararo bog'liqlik	852
<i>Musayeva Dilfuza Abdurahmonova</i>	
Ta'limda muloqot madaniyatini shakllantirishga qaratilgan metodlar tizimini ilmiy tahlil qilish	857
<i>Kobulova Maktuba Urmonjonovna</i>	
Shaxs psixologik portreti va unga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar	862
<i>Ataqulov Bekzod Abdurashitovich</i>	
Zamonaviy didaktik paradigmadagi talabalar ta'lim natijalarini tashxislash	866
<i>Tursunova Feruza Otaqulovna</i>	
Ingliz tilini bilishning sport talabalari uchun ahamiyati	869
<i>Azimova Umirxon Odilovna</i>	
Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid ma'naviy va axloqiy qarashlari	873
<i>Baxtiyor Suvankulov</i>	
Oliy ta'limda talabalarning mustaqil va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishning metodik asoslari	877
<i>Abduraxmonova Dinara Yusupovna</i>	
Tarbiya jarayonida pedagogik boshqaruv uslublari: nazariy asoslar va amaliy mexanizmlar	881
<i>Farsaxonova Dilafruz Rizaxonovna</i>	
Maktabgacha ta'lim davlat talablari va o'quv dasturlarida nutq hamda mustaqil fikrlash masalalari	886
<i>Mirzoyeva Nigora Shavkatjonovna, Qobilova Dildora</i>	
Zamonaviy ta'lim texnologiyalari orqali talabalarning kasbiy loyihaviy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari	890
<i>Xamidova Feruza Turdiyevna</i>	
Raqamli davr bolasini tarbiyalashda psixologik muvozanatni saqlash orqali sog'lom shaxsni shakllantirish	896
<i>Hakimova Ziyoda Ibrohim qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik intellektini shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining samaradorligi	900
<i>Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi</i>	
O'qish savodxonligini rivojlantirishda qo'llaniladigan nazariy modellar	903
<i>Abdiraimova Xusnobod Samat qizi</i>	
Talabalar mustaqil ta'limini individuallashtirish metodlari	910
<i>Arzikulova Surayyo Fayzullayevna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishning amaliy asoslari	914
<i>Xoliqulova Kumush Ilxom qizi</i>	
Psixologik-pedagogik yondashuvlar asosida mahdudlik holatlarini bartaraf etishning takomillashtirilgan metodikasi (maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari misolida)	919
<i>Mamatqulova Dinora Yunus qizi</i>	



Ilg'or pedagogik texnologiyalar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativlikni rivojlantirish	923
<i>Uzoqova Husnora</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ilk matematik tasavvurlarni shakllantirish jamiyatning asosiy talabi sifatida	927
<i>Toshimova Gulzoda Jamoliddinovna</i>	
Sun'iy intellekt vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtisodiy va moliyaviy savodxonligini shakllantirish mexanizmlari	930
<i>Jumayeva Feruza Sayidovna</i>	
O'qish savodxonligi darslarida matn ustida ishlash (2-sinf misolida).....	936
<i>Abdiyeva Shakila Ishkuvatovna</i>	
Turistik faoliyatda ijtimoiy muloqot kompetensiyasini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	941
<i>Abdullayeva Sevara Yuldashevna</i>	
Oilaning katta avlodi va maktabgacha yoshdagi bolalar o'rtaqidagi psixologik munosabatlarning nazariy asoslari	944
<i>Ashirova Sojida Baxromovna</i>	
Yosh pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda tajriba almashishning ilmiy-metodik asoslari va usullari	948
<i>Dildora Rustam qizi Fozilova</i>	
Maktabga tayyorlov bosqichida o'quvchilar grafomotorikasini individual yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari	951
<i>Jumayev Sanjar Soatmumin o'g'li</i>	
Uzluksiz ta'limda inklyuziv yondashuvning samaradorligini ta'minlovchi pedagogik va ijtimoiy omillar.....	955
<i>Kobilova Shaxnoza Xudayshukurovna</i>	
Tolerantlik tushunchasining mohiyati va uning ta'lim tizimidagi ahamiyati.....	958
<i>Kurbanova Shoirra Abduraximovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni mashg'ulotlar jarayonida TRIZ texnologiyasi bilan tanishtirishning ahamiyati.....	961
<i>Meliboyev Anvar Rashidovich</i>	
The Conceptual Framework and Pedagogical Affordances of Vtss: A New Paradigm for Specialised Instruction.....	964
<i>Nilufar Sabirova</i>	
O'zbek oilalarida axloqiy tarbiya munosabatlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	967
<i>Qurbanova Go'zal Saydaxmatovna</i>	
Fizika o'qitishda 4K kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy asoslari	973
<i>Saydayev Obid Bahodir o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida innovatsion faoliyat ko'nikmalarini takomillashtirishning modulli texnologiyalari	979
<i>Saliyeva Perdexan Alimbetovna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak ijtimoiy soha xodimlarining kognitiv kompetentligini rivojlantirish	984
<i>Qaxxorov Shahriyor Yodgorovich</i>	
Maktabgacha ta'limda ma'naviy-axloqiy tarbiyani amalga oshirish usullari.....	987
<i>Sattorova Shaxlo Axadovna, Omonova Shoxista Anvar qizi, Raximova Durdona Murot qizi</i>	
Ta'lim tizimida sun'iy intellekt elementlaridan foydalanishning afzalliklari	990
<i>Sulaymanova Dildora Baxtiyorovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik sanalarga bag'ishlab ma'rifiy tadbirlar o'tkazishning afzalliklari.....	993
<i>Tohirova Baxtigul Hasanboy qizi</i>	
Pedagogik ta'limda talabalarning gnoseologik motivatsiyasini rivojlantirish zaruriyati	996
<i>Xudoyqulova Dilrabo Shodmonovna</i>	
Сопоставление русских и узбекских пословиц: сходства, различия и культурный контекст	1000
<i>Касымова Феруза Суннатовна</i>	
Теоретические аспекты развития мотивационной сферы в психологии изучения личности	1003
<i>Маликова Эвелина Тимуровна</i>	



Психологическая устойчивость личности в исследованиях узбекских учёных: теоретический анализ и применение концепции	1007
Саитходжаев Зуфар Хусан угли	
Biologiya ta'limida kognitiv yondashuv asosida o'quvchilarning universal o'quv faoliyatlarini shakllantirish	1011
Daminova Fayoza Abdixakimovna	
Milliy musiqa merosini zamonaviy ta'limda saqlash muammolari va yechimlari.....	1014
Haydarov Qutlug' Hamdamovich	
Sun'iy intellekt: maktabgacha ta'lim tashkilotining taraqqiyotini ta'minlovchi zamonaviy texnologiya sifatida.....	1017
Axmadaliyeva Mohlaroy Toxtapo'latovna	
Shukur Xolmirzayevning ijtimoiy-etnografik folklorizm yaratish mahorati	1021
Mamayusupova S. M.	
Androgogik va interfaol metodlarni jismoniy tarbiya mashg'ulotlarda foydalanish samaradorligi.....	1024
Normamatov Muxiddin Abdumuminovich	
Tinglab tushunishning psixolingvistik xususiyatlari.....	1028
O. V. Kon	
Gi de Mopassanning hikoyachilik mahorati va badiiy uslubi.....	1032
Yuldashev Bahodir Bekmuratovich	
Художественный мир и стилистическая система прозы Патрика Модiano.....	1035
Давронова Зульфия Бобоевна	
Umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda pedagogik qarashlar	1041
Xamidov Amin Abdulloevich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qish darslarida kreativ fikrlashga o'rgatish	1044
Abduvahob Eshmurodov	
Talabalarda tibbiy bilimlarini rivojlantirishda "Svetofo" metodining ahamiyati va xususiyatlari	1047
Akbarova Dono Rahmatdjonovna	
Yosh davrlariga qarab harakat koordinatsiyasining rivojlanish bosqichlari va badiiy gimnastikada ritmning ahamiyati.....	1051
Beknazarova Lobar Shokir qizi	
Mashq va topshiriqlar tizimi orqali talabalarining komparativ-kreativ fikrlashini shakllantirish.....	1055
Mohinbonu Usmonova	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida milliy qadriyatlar asosidagi kompetensiya metodlarini takomillashtirish	1058
Hamdamova Manzura Zuvaydillayevna	
Akademik ko'nikma va uning tipologik tasnifi	1062
N. J. Isakulova	
Формирование коммуникативной компетентности детей старшего дошкольного возраста в процессе взаимодействия со сверстниками.....	1068
Намазбаева Лола Закировна, Умерова Зарема Ремзиевна	
Formativ baholashning nazariy asoslari va fizika fanida qo'llash imkoniyatlari	1073
Sobirov Avazbek Anvarovich	
Jismoniy tarbiya darslarida milliy o'yinlardan foydalanish	1078
Ibragimov Shuhratbek	
Interaktiv ta'lim muhitida o'quvchilarning kasbiy-ma'naviy tasavvurlarini boyitish yo'llari.....	1082
Mutallibjonov Ma'rufjon	
O'tkir Rahmat ijodida qo'llanilgan kognitiv metaforalar.....	1088
Maxammatova Feruza Olimovna	
Tarbiya darslarida muammoli ta'lim texnologiyasi orqali o'quvchilarning mustaqilligini rivojlantirish	1092
Qurbaniyozova Mardona Fayzulla qizi	



FORMATIV BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI VA FIZIKA FANIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI

Sobirov Avazbek Anvarovich

Andijon shahridagi Prezident maktabi fizika fani o'qituvchisi,
Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Formativ baholashning nazariy asoslari hamda uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati yoritiladi. Formativ baholash o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam ravishda aniqlash hamda o'quv jarayonini takomillashtirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Mazkur yondashuv ta'lim jarayonida o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlab, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida samarali muloqotni rivojlantirishga yordam beradi. Tadqiqotda formativ baholashning asosiy tamoyillari, shakllari va metodlari ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, fizika fanini o'qitishda formativ baholashni qo'llash imkoniyatlari ham ko'rib chiqiladi. Fizika darslarida ushbu baholash turidan foydalanish o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi hamda ilmiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada o'quvchilarning xatolarini o'z vaqtida aniqlash va tuzatish imkoniyati yaratiladi, ta'lim samaradorligi ortadi hamda fan bo'yicha bilimlar yanada mustahkamlanadi.

Kalit so'zlar: formativ baholash, baholash tizimi, fizika ta'limi, pedagogik metodlar, o'quv jarayoni, ta'lim samaradorligi, o'quvchi faoliyati, zamonaviy ta'lim.

Abstract: The theoretical foundations of formative assessment and its significance in the educational process are examined. Formative assessment is considered an effective pedagogical tool that enables the continuous identification of students' knowledge, skills, and competencies while improving the learning process. This approach ensures active student participation in learning activities and promotes effective interaction between teachers and students. The study analyzes the main principles, forms, and methods of formative assessment based on scientific sources. In addition, the possibilities of applying formative assessment in physics education are explored. The use of formative assessment in physics lessons contributes to the development of students' logical thinking and scientific reasoning. It also enables teachers to identify students' mistakes in a timely manner and improve the learning process. As a result, the effectiveness of education increases and students' knowledge of physics becomes stronger.

Key words: formative assessment, assessment system, physics education, pedagogical methods, learning process, educational effectiveness, student activity, modern education.

Аннотация: Рассматриваются теоретические основы формативного оценивания и его значение в образовательном процессе. Формативное оценивание выступает эффективным педагогическим инструментом, позволяющим регулярно определять уровень знаний, умений и навыков учащихся, а также совершенствовать учебный процесс. Данный подход обеспечивает активное участие учащихся в обучении и способствует развитию эффективного взаимодействия между учителем и учениками. В работе освещаются основные принципы, формы и методы формативного оценивания на основе анализа научных источников. Кроме того, анализируются возможности применения формативного оценивания на уроках физики. Использование данного вида оценивания способствует развитию логического мышления и научного мировоззрения учащихся. Это позволяет своевременно выявлять ошибки обучающихся и корректировать процесс обучения. В результате повышается эффективность образования и укрепляются знания учащихся по физике.

Ключевые слова: формативное оценивание, система оценивания, обучение физике, педагогические методы, учебный процесс, эффективность обучения, деятельность учащихся, современное образование.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida baholash o'quv jarayonining ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. An'anaviy yondashuvda baholash asosan yakuniy natijani aniqlashga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini baho orqali ifodalash bilan cheklanadi. Bunday summativ baholash modeli bilim hajmini o'lchash imkonini bersa-da, o'quvchilarning analitik fikrlashi, muammoni mustaqil hal etish ko'nikmalari hamda ilmiy tafakkurini to'liq aniqlash imkonini bermaydi.

So'nggi yillarda pedagogik tadqiqotlarda baholashning yangi paradigmasi – formativ baholash (Assessment for Learning) konsepsiyasi keng rivojlanmoqda. Ushbu yondashuv baholashni nazorat vositasi emas, balki o'quvchini rivojlantiruvchi pedagogik mexanizm sifatida talqin etadi. Xalqaro ta'lim tizimlarida, xususan, Cambridge Assessment amaliyotida formativ baholash o'quv jarayonining markaziy elementi sifatida qaraladi va aniq mezonlar hamda tizimli feedback asosida tashkil etiladi.

Fizika fani o'zining murakkab nazariy va amaliy tabiati bilan boshqa fanlardan ajralib turadi. Ushbu fan nafaqat formulalarni yod olishni, balki matematik modellash, eksperimental tekshiruv, grafik tahlil va ilmiy xulosa chiqarishni talab qiladi. Shunga qaramay, amaliyotda fizika fanida baholash ko'pincha reproduktiv bilimlarni aniqlash bilan cheklanib qolmoqda. Natijada o'quvchilarning yuqori darajadagi kognitiv ko'nikmalari – tahlil, sintez va baholash – yetarli darajada rivojlanmayapti.

Mazkur holat fizika ta'limida baholash tizimini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Ayniqsa, kompetensiyaviy yondashuv sharoitida formativ baholashni tizimli joriy etish dolzarb masala hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Formativ baholash ta'lim jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladigan muhim pedagogik yondashuvlardan biri hisoblanadi. Ushbu tushuncha ilmiy adabiyotlarda ilk bor XX asrning ikkinchi yarmida keng qo'llanila boshlagan. Masalan, amerikalik pedagog olim B. S. Bloom 1968-yilda ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilim darajasini muntazam nazorat qilish va ularni rivojlantirish zarurligini ta'kidlab, formativ baholash g'oyasini ilgari surgan. Uning fikricha, baholash faqat yakuniy natijani aniqlash uchun emas, balki o'quv jarayonini boshqarish va takomillashtirish uchun ham xizmat qilishi lozim.

Keyingi yillarda formativ baholash nazariyasi ingliz tadqiqotchilari P. Black va D. Wiliam [1, 25-b.] tomonidan chuqur o'rganilgan. Ularning 1998-yilda chop etilgan "Assessment and Classroom Learning" nomli tadqiqoti formativ baholashning ta'lim samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ilmiy asosda isbotlab berdi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, dars jarayonida muntazam formativ baholash qo'llanilganda o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi sezilarli darajada oshadi va ularning mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlanadi.

Zamonaviy pedagogika nazariyasida ham formativ baholash ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida qaraladi. Masalan, D. Nicol va D. Macfarlane-Dick [5, 120-b.] o'z tadqiqotlarida formativ baholash o'quvchilarning o'zini-o'zi baholash ko'nikmasini shakllantirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Ularning fikriga ko'ra, o'quvchilar baholash jarayonida faol ishtirok etganda, ular o'z bilim darajasini anglaydi va kamchiliklarini bartaraf etishga intiladi.

Fizika ta'limida formativ baholashdan foydalanish masalasi ham ko'plab pedagogik tadqiqotlarda ko'rib chiqilgan. Fizika fanining murakkab tushunchalarini o'zlashtirish jarayonida tezkor savol-javob, mini-testlar, laboratoriya ishlari natijalarini tahlil qilish kabi formativ baholash usullari o'quvchilarning mavzuni chuqurroq anglashiga yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, fizika darslarida formativ baholashni qo'llash o'quvchilarning analitik fikrlashini rivojlantiradi va nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash imkonini beradi.

O'zbekiston ta'lim tizimida ham so'nggi yillarda formativ baholashni joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitish jarayonida o'quvchilar faoliyatini muntazam kuzatib borish, tahlil qilish va rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli formativ baholash o'qituvchilarga dars jarayonini samarali tashkil etish va har bir o'quvchining o'zlashtirish darajasini aniqlash imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda formativ baholashning nazariy asoslarini o'rganish hamda uning fizika fanini o'qitish jarayonida qo'llash imkoniyatlarini aniqlash maqsadida bir qator ilmiy-pedagogik metodlardan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy pedagogika va ta'lim nazariyasiga tayangan holda ishlab chiqildi. Avvalo, mavzuga oid ilmiy-pedagogik adabiyotlar, xalqaro tadqiqotlar hamda ta'lim standartlari tahlil va sintez usullari orqali o'rganildi. Bu jarayonda formativ baholashning mazmuni, tamoyillari va asosiy xususiyatlari aniqlashtirildi. Shuningdek, turli olimlarning ilmiy qarashlari solishtirilib, formativ baholashning ta'lim jarayonidagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Tadqiqot davomida qiyosiy tahlil metodidan ham foydalanildi. Ushbu metod yordamida an'anaviy baholash tizimi bilan formativ baholash yondashuvi o'rtasidagi farqlar va ularning o'quvchilarning bilim olish jarayoniga ta'siri o'rganildi. Natijada formativ baholashning o'quvchilarning bilim darajasini muntazam nazorat qilish va rivojlantirishdagi ustun jihatlari aniqlab berildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida formativ baholashning nazariy asoslari hamda uni fizika fanida qo'llash imkoniyatlari pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilindi. Tahlil jarayonida an'anaviy baholash va formativ baholash yondashuvlari o'zaro solishtirildi. Aniqlanishicha, an'anaviy baholash asosan o'quvchining yakuniy natijasini qayd etishga xizmat qilsa, formativ baholash ta'lim jarayonining o'zida o'quvchi rivojlanishini kuzatish, xatolarni aniqlash va o'z vaqtida tuzatishga yo'naltirilgan. Shu jihatdan formativ baholash o'qitishning nazorat vositasi bo'lish bilan birga, uni takomillashtirish vositasi ham hisoblanadi.

Fizika darslari misolida o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, mazkur fanda formativ baholash ayniqsa muhimdir. Chunki fizika faqat tayyor formulalarni yod olish emas, balki hodisalarni tushunish, ular orasidagi bog'lanishni izohlash, tajribalarni kuzatish va xulosa chiqarishni talab etadi. Dars jarayonida qisqa savol-javoblar, tezkor testlar, laboratoriya ishlari bo'yicha kuzatuv, jadval va sxemalar bilan ishlash, o'zaro baholash hamda o'zini o'zi baholash kabi usullar qo'llanilganda o'quvchilar mavzuni chuqurroq anglay boshlashi kuzatildi. Ayniqsa, "kuch", "bosim", "zichlik", "mexanik ish", "energiya" kabi mavzularda o'quvchilarning faolligi oshgani sezildi.

Baholash paradigmasining rivojlanishi

Pedagogik nazariyada baholash ikki asosiy yo'nalishda rivojlangan:

1. Summativ baholash (yakuniy baholash);
2. Formativ baholash (rivojlantiruvchi baholash).

Summativ baholash o'quv jarayonining yakunida amalga oshiriladi va o'quvchi tomonidan o'zlashtirilgan bilim hajmini aniqlashga xizmat qiladi. Biroq bu yondashuv o'quv jarayonini boshqarish imkonini bermaydi.

Formativ baholash esa jarayon davomida amalga oshiriladi va o'quvchining rivojlanish trayektoriyasini aniqlashga xizmat qiladi. Zamonaviy ta'lim tizimlarida, jumladan, Cambridge Assessment tajribasida, formativ baholash ta'lim sifatini oshirishning muhim omili sifatida qaraladi.

Baholash paradigmasining o'zgarishi konstruktivistik ta'lim nazariyasi bilan bog'liq. Ushbu nazariyaga ko'ra, bilim tayyor shaklda berilmaydi, balki o'quvchi tomonidan faol ravishda quriladi. Shunday ekan, baholash ham o'quvchining fikrlash jarayonini aniqlashi va rivojlantirishi lozim.

Kriterial baholash va rubrika tizimi

Formativ baholashning muhim jihatlaridan biri – kriterial yondashuvdir. Kriterial baholashda o'quvchining natijasi boshqa o'quvchilar bilan emas, balki oldindan belgilangan aniq mezonlar bilan taqqoslanadi. Bu yondashuv baholashning shaffofligi va obyektivligini ta'minlaydi.

Rubrika esa kriterial baholashning amaliy vositasi hisoblanadi. Rubrika – bu o'quv faoliyatini baholash uchun ishlab chiqilgan darajali mezonlar jadvali bo'lib, unda har bir ko'rsatkichning sifat darajasi aniq tavsiflanadi.

Rubrika quyidagi vazifalarni bajaradi:

- baholash jarayonini tizimlashtiradi;
- o'qituvchi va o'quvchi uchun mezonlarni aniqlashtiradi;
- subyektivlikni kamaytiradi;
- o'quvchining metakognitiv ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ayniqsa, murakkab fanlarda, jumladan, fizika fanida, rubrika asosida baholash yuqori darajadagi fikrlash jarayonlarini aniqlash imkonini beradi.

Masala yechish jarayonida formativ baholash

Fizika fanida masala yechish o'quvchilarning analitik fikrlashi va mantiqiy tafakkurini rivojlantiruvchi asosiy faoliyat turi hisoblanadi. Biroq amaliyotda masalalar ko'pincha yakuniy natija asosida baholanadi. Bu esa o'quvchining fikrlash jarayonini to'liq aniqlash imkonini bermaydi.

Formativ baholash yondashuvida masala yechish quyidagi bosqichlar asosida baholanadi:

1. Muammoni tushunish;
2. Fizik modelni tanlash;
3. Matematik ifodalash;

4. Hisoblash jarayoni;
5. Natijani fizik talqin qilish.

Har bir bosqich uchun aniq mezonlar ishlab chiqiladi va o'quvchiga oldindan ma'lum qilinadi. Bunday yondashuv o'quvchiga qaysi bosqichda xato qilganini aniqlash va uni tuzatish imkonini beradi.

Natijada baholash jarayoni nazorat vositasidan rivojlantiruvchi mexanizmga aylanadi.

Laboratoriya ishlari jarayonida formativ baholash

Fizika fanining muhim jihatlaridan biri eksperimental faoliyatdir. Laboratoriya ishlarini baholashda ko'pincha tayyor hisobot mavjudligi yoki natijaning to'g'riligi inobatga olinadi. Biroq jarayonning o'zi yetarli darajada mezonlashtirilmaydi.

Formativ baholash asosida laboratoriya ishlari quyidagi yo'nalishlar bo'yicha baholanishi mumkin:

- gipoteza qo'yish;
- tajriba metodini tanlash;
- o'lchash aniqligi;
- grafik tahlil;
- ilmiy xulosa chiqarish.

Formativ baholash aynan shu ehtiyojga javob beradi. Masala yechishni bosqichma-bosqich mezonlashtirish o'quvchining qaysi bosqichda xatoga yo'l qo'rganini aniqlash imkonini beradi. Bu esa o'qituvchiga maqsadli teskari aloqa berish imkonini yaratadi. Natijada baholash jarayoni nazorat vositasidan rivojlantiruvchi mexanizmga aylanadi.

Laboratoriya ishlari jarayonida ham formativ yondashuvning ustunligi yaqqol namoyon bo'ladi. An'anaviy tizimda ko'pincha tayyor natija yoki hisobot mavjudligi baholanadi. Biroq jarayon – gipoteza qo'yish, tajriba metodini tanlash, o'lchash aniqligi, xatoliklarni tahlil qilish – yetarlicha mezonlashtirilmaydi. Taklif etilgan model esa aynan jarayonni baholashga yo'naltirilgan bo'lib, bu o'quvchilarda ilmiy tafakkur va tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xalqaro tajriba, jumladan, Cambridge Assessment tizimi, kriterial va rubrika asosidagi baholashning samaradorligini tasdiqlaydi. Mazkur yondashuvda baholash mezonlari oldindan aniqlanadi va o'quvchiga yetkaziladi. Bu shaffoflik o'quvchilarning baholash jarayoniga ongli munosabatini shakllantiradi hamda o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari formativ baholashning fizika ta'limi jarayonida nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Zamonaviy ta'lim sharoitida an'anaviy summativ baholash modeli o'quvchilarning asosan reproduktiv bilimlarini aniqlashga yo'naltirilgan bo'lib, ularning yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalarini to'liq rivojlantirish imkonini bermaydi.

Tahlillar asosida quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi:

- *Birinchidan*, formativ baholash baholash jarayonini nazorat vositasidan rivojlantiruvchi pedagogik mexanizmga aylantiradi. U o'quvchilarning o'quv faoliyatini doimiy monitoring qilish, xatolarni aniqlash va ularni bartaraf etish orqali ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.
- *Ikkinchidan*, fizika fanining kompetensiyaviy xususiyati – matematik modellashtirish, eksperimental faoliyat, grafik tahlil va ilmiy xulosa chiqarish – baholash tizimini jarayon asosida tashkil etishni talab qiladi. Formativ yondashuv ushbu ehtiyojga mos keladi.
- *Uchinchidan*, masala yechish jarayonini bosqichma-bosqich mezonlashtirish o'quvchilarning analitik fikrlashini rivojlantiradi hamda xatolarni aniqlash va tuzatish mexanizmini kuchaytiradi.
- *To'rtinchidan*, laboratoriya ishlarini jarayon asosida baholash o'quvchilarning ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.
- *Beshinchidan*, rubrika asosidagi kriterial baholash baholashning shaffofligini ta'minlaydi, subyektivlikni kamaytiradi va o'quvchilarda o'zini baholash madaniyatini rivojlantiradi.
- *Oltinchidan*, tizimli va mazmunli teskari aloqa (feedback) o'quvchilarning refleksiv tafakkurini va ichki motivatsiyasini oshiradi.



- *Yettinchidan*, xalqaro tajriba, xususan, Cambridge Assessment yondashuvi, formativ baholashning samaradorligini tasdiqlaydi va uni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish imkoniyati mavjudligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, fizika fanida formativ baholashni tizimli joriy etish ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning analitik va tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish hamda kompetensiyaviy yondashuvni samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

Kelgusida taklif etilgan konseptual modelning empirik samaradorligini aniqlash, nazorat va tajriba guruhlarida statistik tahlil asosida baholash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Black, P., Wiliam, D. Assessment and Classroom Learning // Assessment in Education: Principles, Policy & Practice. 1998. Vol. 5, No. 1. P. 7–74.
2. Sadler D.R. Formative assessment and the design of instructional systems // Instructional Science. – 1989. – Vol.18. – P.119–144.
3. Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses. – London: Routledge, 2009.
4. Brookhart S.M. How to Create and Use Rubrics for Formative Assessment. – Alexandria: ASCD, 2013.
5. Nicol, D. J., Macfarlane-Dick, D. Formative Assessment and Self-Regulated Learning: A Model and Seven Principles of Good Feedback Practice // Studies in Higher Education. 2006. Vol. 31, No. 2. P. 199–218.
6. Andrade H. Using rubrics to promote thinking and learning // Educational Leadership. – 2000. – Vol.57(5).
7. Nicol D., Macfarlane-Dick D. Formative assessment and self-regulated learning // Studies in Higher Education. – 2006.
8. Torrance H. Formative assessment at the crossroads // Oxford Review of Education. – 2012.
9. Docktor J.L., Mestre J.P. Synthesis of discipline-based education research in physics // Physical Review PER. – 2014.
10. Redish E.F. Teaching Physics with the Physics Suite. – Hoboken: John Wiley & Sons, 2003.
11. Cambridge International. Physics Syllabus and Assessment Objectives. – Cambridge, 2020.
12. Heritage M. Formative Assessment: Making It Happen in the Classroom. – Thousand Oaks, 2010.
13. Bennett R.E. Formative assessment: A critical review // Assessment in Education. – 2011.
14. Kingston N., Nash B. Formative assessment: A meta-analysis // Educational Measurement. – 2011.
15. Fizika fanidan milliy o'quv dasturi (10–11-sinf). – Toshkent, 2022.
16. Rashidov A. Fizika o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.